KO‘CHMAS MULK QIYMATINI OMMAVIY BAHOLASH UCHUN KOBB-DUGLAS GIBRID MODELINI QO‘LLASH....910
Xushvaqtov Jasur Shuhrat o‘g‘li

САНИТАРНО-ЗАЩИТНАЯ ЗОНА КАК ИНСТРУМЕНТ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ КРУПНОМАСШТАБНЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ (НА ПРИМЕРЕ ШЕРАБАДСКОЙ СОЛНЕЧНОЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН)....919
Омандавлатов Сирожиддин Содикович

ZAHARLI CHIQINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH....924
Ruziyeva Iroda Davutovna, Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ VANET ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ....930
Лазарев Амир Пишембаевич, Шахобиддинов Алишер Шопатхиддинович

STRENGTHENING THE FINANCIAL RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION....938
Dilnoza Xaitboyeva

SHAHAR INFRATUZILMASIDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR UCHUN TO‘SIQSIZ MUHITNI TASHKIL ETISHDA XALQARO YONDASHUVLAR....941
Karimova Laziza Jaxongir qizi

BANK RISKLARINI BOSHQARISHDA RISK-APPETIT TUSHUNCHASI VA UNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI....946
O‘ktamova Nozima Narzulla qizi, Mirzaraximova Nurhayot Bahrom qizi

O‘ZBEKISTONDA MILLIY TAOMLARNING TURISTLAR SAYOHAT MOTIVATSIYASIGA TA’SIRINI BAHOLASH....950
Turayev Ziyadulla Norsoatovich

O‘ZBEKISTONDA TURIZM TURLARINI TRANSFORMATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH CHEGARALARINI TIZIMLI TAHLIL ASOSIDA ANIQLASH USLUBIYOTLARI....956
Saidova Dilfuza Abdufattohovna

ISTE’MOL NARXLARI INDEKSINI HISOBLASHDA KUZATUV QAMROVI, MA’LUMOTLAR MANBALARI VA VAZNLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH....964
Ismailova Shaxnoza Uktamovna

O‘ZBEKISTONDA UY-JOY NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI....969
Tog‘ayeva Dildora Akramovna

AUDIT ISHI SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH....976
Qo‘shmatov Otaxon Qurbonaliyevich

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ И ЗАРЯДНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА....981
Абдурашидов Искандарбек Журъат угли, Ибрахимов Каримжон Исмаилович, Таджибаев Абдунаби Абдурахмонович, Абдурашидов Сардор Журъат угли

STUDY OF THE HYDROLYTIC ACTIVITY OF CELLULASE ENZYME PREPARATIONS ON COTTON FIBER....990
Nazarov Kamoljon, Valixodjayeva Ziyoda, Soatov Askarali

KATTA MA’LUMOTLAR (BIG DATA) VA ULARNING AXBOROT TIZIMLARIDAGI QO‘LLANILISHI....994
Abdullayev Jahongir Shuxrat o‘g‘li

AGRAR SOHADA MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA XUSUSIY INVESTITSIYALAR VA KREDIT O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING AHAMIYATI....998
S. J. Yangiboev

THE ROLE OF SUPERPLASTICIZERS IN REDUCING WATER DEMAND AND ELIMINATING EXTERNAL CURING IN CONCRETE....1005
Shakirov Tuygunjon Turgunovich, Umarov Khotamjon Atamjonovich

ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ....1010
Айтымбетов Султанбек Дуйсенбаевич

DOLOTA DETALIGA QO‘SHIMCHA ISHLOV BERIB RESURSINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH....1016
Qosimov Karimjon, Qodirov Nazirjon Ulug‘bekovich, Yusupov Asrorbek Rafiqjon o‘g‘li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI TA’MINLASHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI....1019
Eshpo‘latova Hilola Bozorboy qizi

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA “ISO 9001:2015” VA “ISO/IEC 17025:2017” STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH 1025
Mamajonov Abduvoxid Abduraxmonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjon o‘g‘li

AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSION RIVOJLANISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO‘NALISHLAR 1032
Aksakalov Ravshanjon Dolimjonovich

ENTROPIYA ASOSIDA MA’LUMOTLARNI SIQISH ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH 1038
Jovliyeva Dilnoz Mustofa qizi

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASINING KONSEPTUAL MODELI 1043
Tursunxo‘jayev Sardor Jamoliddin o‘g‘li

YENGIL AVTOMOBIL UCHUN YONILG‘I SARFINI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN ECO-HARAKAT REJIMLARINI NAZARIY ASOSLASH USLUBI 1048
Fattohjonov Bekzod Rasuljon o‘g‘li, Ro‘zimov Sanjarbek Komilovich, Ravshanbekov JaxongirAlisher o‘g‘li, Muxitdinov Akmal Anvarovich

AQSHNING ILG‘OR TAJRIBASI ASOSIDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 1058
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich

IJTIMOIY HIMOYA KATEGORIYASINING TRANSFORMATSON RIVOJLANISHI 1067
M.Sh.Raximova

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI 1072
Ibayev Xo‘jabek, Ergashev Olloyor Furqat o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

Ibayev Xo‘jabek
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ergashev Olloyor Furqat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi tayanch doktaranti
ORCID: 0009-0003-2654-1534
Email: ergashevolloyor53@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta’minlovchi muhim nazorat mexanizmi ekanligi asoslangan. Tadqiqotda auditning maqsadi, turlari, ko‘lami hamda ichki nazorat tizimining rivojlanganlik darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, auditorlik xulosasining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan riskga asoslangan yondashuv, tashkiliy-huquqiy shakl va boshqaruv xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari audit sifatini oshirish va auditorlik amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: auditorlik tekshiruvi, auditorlik xulosasi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, moliyaviy hisobot, ichki nazorat tizimi, majburiy audit, tashabbusli audit, korporativ boshqaruv, audit sifati.

Abstract. This article highlights the theoretical, methodological, and practical foundations of organizing audit inspections and forming audit opinions in business entities. It is emphasized that, in a market economy, an audit serves as a key control mechanism ensuring the reliability and transparency of financial statements. The study analyzes the purpose, types, and scope of audits, as well as the level of development of internal control systems. Factors influencing the formation of an audit opinion, including risk-based approaches, organizational-legal forms, and management characteristics, are also examined. The results of the study contribute to improving audit quality and enhancing audit practices.

Keywords: audit inspection, audit opinion, business entities, financial statements, internal control system, mandatory audit, voluntary audit, corporate governance, audit quality.

Аннотация. В данной статье освещены теоретико-методологические и практические основы организации аудиторской проверки и формирования аудиторского заключения в хозяйствующих субъектах. Подчеркивается, что в условиях рыночной экономики аудит является важным механизмом контроля, обеспечивающим надежность и прозрачность финансовой отчетности. В исследовании проанализированы цели, виды и объем аудита, а также уровень развития системы внутреннего контроля. Рассмотрены факторы, влияющие на формирование аудиторского заключения, включая риск-ориентированный подход, организационно-правовую форму и особенности управления. Результаты исследования способствуют повышению качества аудита и совершенствованию аудиторской практики.

Ключевые слова: аудиторская проверка, аудиторское заключение, хозяйствующие субъекты, финансовая отчетность, система внутреннего контроля, обязательный аудит, инициативный аудит, корпоративное управление, качество аудита.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruvning shaffofligini ta’minlash hamda manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonch muhitini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, mulkdorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning asoslanganligi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi, to‘liqligi va ishonchliligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini mustaqil baholash, buxgalteriya hisobining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlashga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Audit jarayonining samarali tashkil etilishi moliyaviy risklarni aniqlash, ichki nazorat tizimini baholash hamda boshqaruv sifatini oshirishga imkon yaratadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirish jarayoni ularning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi, boshqaruv modeli hamda faoliyat ko‘lamiga qarab farqlanishi mumkin. Ayrim subyektlarda auditning asosiy maqsadi investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta’minlashdan iborat bo‘lsa, boshqa subyektlarda esa boshqaruv qarorlarining samaradorligini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli auditorlik xulosasini shakllantirishda riskga asoslangan yondashuvdan foydalanish, ichki nazorat tizimining holatini chuqur o‘rganish hamda audit natijalarining axborot qiymatini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari iqtisodiy fanlarda, xususan, buxgalteriya hisobi, audit va korporativ boshqaruv yo‘nalishlarida keng miqyosda tadqiq etib kelinmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda auditorlik faoliyati moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish, axborot assimetriyasini kamaytirish hamda investorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida talqin etiladi.

Jumladan, Arens, Elder va Beasley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini mustaqil baholash orqali bozor ishonchini mustahkamlashdan iborat ekani asoslab berilgan [1]. Mualliflar auditorlik xulosasining sifati auditorning mustaqilligi, professional malakasi hamda riskka asoslangan yondashuvni qo‘llash darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasining o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlarda audit korporativ boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida qaraladi. Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasiga asoslangan yondashuviga ko‘ra, auditorlik tekshiruvi menejerlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyatini yumshatishga xizmat qiladi [2]. Ushbu yondashuv doirasida auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlar orqali taqdim etilayotgan axborotning haqqoniyligini tasdiqlovchi ishonch instrumenti sifatida baholanadi.

Shuningdek, DeAngelo auditorlik xizmatlari sifatini auditorning obro‘si va mustaqilligi bilan bog‘lab, yirik auditorlik tashkilotlari tomonidan berilgan auditorlik xulosalari bozor ishonchini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3].

MDH mamlakatlari hamda O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida auditorlik tekshiruvining milliy xususiyatlari, huquqiy asoslari va amaliy jihatlari alohida o‘rganilgan. Xususan, O‘zbekistonlik tadqiqotchilar auditorlik faoliyatini rivojlantirishda milliy qonunchilikni xalqaro audit standartlariga moslashtirish muhimligini ta’kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik xulosasining mazmuni subyektning tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat ko‘lami hamda risklar darajasini inobatga olgan holda differensial yondashuv asosida shakllantirilishi lozim.

Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvining tashabbusli va majburiy shakllari o‘rtasidagi farqlarni aniq belgilash audit natijalarining axborot qiymatini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi [5]. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi hamda auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘lib, ular moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, risklarni kamaytirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, milliy amaliyotda auditorlik xulosasining axborot mazmunini yanada boyitish va uni manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga moslashtirish masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot xo‘jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy-

metodik asosini auditorlik faoliyati, moliyaviy nazorat va korporativ boshqaruvga oid milliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, shuningdek amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv kabi umumilmiy metodlardan foydalanilib, auditorlik tekshiruvining mohiyati hamda auditorlik xulosasini shakllantirish bosqichlari kompleks tarzda o'rganildi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik amaliyotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida taqqoslash, guruhlash va mantiqiy tahlil metodlari qo'llanildi. Riskga asoslangan audit yondashuvi doirasida moliyaviy va operatsion risklar baholanib, ularning auditorlik xulosasida aks ettirilish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida auditorlik standartlari va amaldagi me'yoriy-huquqiy talablar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bozor mexanizmlari asosida tashkil etilib, ularning moliyaviy natijalari bevosita mulkdorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlari bilan uzviy bog'liqdir. Bunday sharoitda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlash, investitsiya qarorlarini asoslash hamda moliyaviy risklarni baholashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli auditorlik tekshiruvi moliyaviy axborotning haqqoniyligini mustaqil tasdiqlovchi hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlovchi muhim nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik xulosasini shakllantirish jarayoni auditning umumiy tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, u subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi, boshqaruv tizimi hamda faoliyat risklari bilan belgilanadigan o'ziga xos jihatlarga ega. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash, moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mavjud risklarni auditorlik xulosasida asosli aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur bo'limda xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirishning amaliy jihatlari tizimli ravishda yoritiladi.

1-jadval. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasini shakllantirishning taqqoslama xususiyatlari

Taqqoslash mezoni	Xo'jalik yurituvchi subyektlar (individual shakl)	Xo'jalik yurituvchi subyektlar (korporativ shakl)
Audit o'tkazishdan asosiy maqsad	Mulkdor manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy natijalarni baholash	Investorlar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish
Audit turi	Asosan tashabbusli (ixtiyoriy) audit	Majburiy va tashabbusli audit keng qo'llaniladi
Ichki nazorat tizimi	Nisbatan sodda va cheklangan	Murakkab va ko'p pog'onali
Auditorlik tekshiruvining ko'lami	Faoliyat hajmi va risk darajasiga bog'liq	Konsolidatsiyalashgan hisobotlar hamda sho'ba korxonalarni qamrab oladi

1-jadval ma'lumotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyotida muhim tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, audit o'tkazishdan ko'zlangan maqsad jihatidan ayrim subyektlarda auditorlik tekshiruvi ko'proq mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy natijalarni baholashga qaratilsa, boshqa subyektlarda investorlar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatlashtirish, shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Audit turi va ko'lami bo'yicha ham farqlar kuzatiladi. Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashabbusli audit ustuvor bo'lsa, yirik subyektlarda majburiy audit keng qo'llaniladi hamda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va tarkibiy bo'linmalar faoliyati ham audit qamroviga kiritiladi. Bu holat auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida riskga asoslangan yondashuvni qo'llashni yanada muhimlashtiradi.

Ichki nazorat tizimining rivojlanganlik darajasi auditorlik xulosasining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nisbatan sodda ichki nazorat tizimiga ega subyektlarda auditorlik xulosasi ko'proq aniqlangan kamchiliklar va tavsiyalar bilan chegaralansa, murakkab boshqaruv tuzilmasiga ega subyektlarda auditorlik xulosasi batafsil, keng qamrovli hamda izohli shaklda rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, auditorlik xulosasidan foydalanish yo'nalishlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim subyektlarda auditorlik xulosasi ichki boshqaruv samaradorligini oshirish vositasi sifatida qo'llansa, boshqalarida u investitsion qarorlar qabul qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda bozor ishonchini mustahkamlashda

muhim axborot manbai vazifasini bajaradi. Shu sababli auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonini differensial yondashuv asosida takomillashtirish audit sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, buxgalteriya hisobi yuritilishining qonuniyligi hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. Audit yakunida tuziladigan auditorlik xulosasi investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

"Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun talablariga ko'ra, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi buyurtmachi tashabbusi asosida shartnoma doirasida amalga oshiriladi va audit xarajatlari buyurtmachi tomonidan qoplanadi. Shuningdek, qonunchilikda belgilangan mezonlarga javob beruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim.

Auditorlik tekshiruvi odatda uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, auditorlik amallarini bajarish hamda auditorlik xulosasini tayyorlash. Rejalashtirish bosqichida audit maqsadi, hajmi va risklari aniqlanadi, tekshiruv jarayonida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi hamda ichki nazorat tizimi baholanadi. Yakuniy bosqichda esa aniqlangan natijalar asosida auditorlik xulosasi shakllantirilib, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Auditorlik xulosasi tarkiban bir necha asosiy elementlardan iborat bo'lib, odatda sarlavha, kirish qismi, asosiy mazmun va auditorning yakuniy fikrini o'z ichiga oladi. Auditorning yakuniy bahosi moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasiga qarab ijobiy xulosa, shartli ijobiy xulosa, salbiy xulosa yoki xulosa bildirishdan voz kechish shaklida ifodalanadi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish hamda auditorlik xulosasini shakllantirish mulkdorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlarini himoya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tasdiqlash bilan birga, ichki nazorat tizimining holati, boshqaruv qarorlarining natijalari hamda xo'jalik faoliyatiga xos asosiy risklar haqida muhim axborot beradi. Natijada auditorlik xulosasi nafaqat nazorat mexanizmi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida axborotga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, auditorlik tekshiruvining maqsadi, ko'lami va uslubiy yondashuvi subyektning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi hamda faoliyat risklari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu omillar auditorlik xulosasining mazmuni va yo'nalishini belgilaydi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvlari ko'proq mulkdorlar va rahbariyat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, auditorlik xulosasi ichki boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Yirik va murakkab tuzilishga ega subyektlarda esa auditorlik xulosasi keng doiradagi manfaatdor tomonlar, jumladan investorlar, kreditorlar va tartibga soluvchi organlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Bu esa auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida riskga asoslangan yondashuvni qo'llash, ichki nazorat hamda boshqaruv tizimlarini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari auditorlik xulosasini shakllantirishda tizimli va differensial yondashuvni qo'llash audit sifatini oshirishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Auditorlik xulosasi mazmunini subyektning risk darajasi, boshqaruv modeli va moliyaviy shaffoflik ko'rsatkichlariga mos ravishda shakllantirish uning axborot qiymatini oshiradi. Natijada auditorlik xulosasi nafaqat nazorat vositasi, balki barqaror rivojlanishni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arens, A.A., Elder, R.J., & Beasley, M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 16th ed. New York: Pearson Education, 2017.
2. Jensen, M.C., & Meckling, W.H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. Journal of Financial Economics, 1976, Vol. 3, No. 4, pp. 305–360.
3. DeAngelo, L.E. Auditor size and audit quality. Journal of Accounting and Economics, 1981, Vol. 3, No. 3, pp. 183–199.
4. Karimov, A.A., & Rahimov, M.X. Audit nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Amaldagi tahrir.
7. Кадирова, Х.Т. Некоторые взгляды на классификацию рынка ценных бумаг. Теоретические и практические аспекты развития науки в современном мире: материалы научной конференции, 2019, pp. 81–86.

8. Кадирова, Х.Т., & Мирзахоликов, Б.Б. Проблемы развития инвестиционной политики на финансовом рынке и пути их решения. Интеграция науки и практики в современном мире: материалы научной конференции, 2019, pp. 35–43.
9. Кадирова, Х. Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024, Т. 2, № [soni ko‘rsatilmagan].
10. Mashrabjonovna, X.D. O‘qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish zamonaviy o‘qituvchini shakllantirishning asosiy omili sifatida. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2025, pp. 63–66.
11. Mashrabjonovna, K.D. Innovative competence and its determinants. Web of Teachers: Inderscience Research, 2023, Vol. 1, No. 4, pp. 20–23.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100